



**INNOVATIVE WORLD**  
Ilmiy tadqiqotlar markazi



**TADQIQOTLAR**



**ILM-FAN**



**TEKNOLOGIYALAR**

# ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI

## ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

**2026**



Google Scholar



zenodo



Andijan, Uzbekistan



+998335668868



<https://innoworld.net>



« ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR  
NAZARIYASI » NOMLI ILMIY, MASOFAVIY,  
ONLAYN KONFERENSIYASI TO'PLAMI

3-JILD 5-SON

Konferensiya to'plami va tezislari quyidagi xalqaro  
ilmiy bazalarda indexlanadi

Google Scholar

doi<sup>®</sup> digital object  
identifier

ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX

OpenAIRE

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib



Directory of Research Journals Indexing

[www.innoworld.net](http://www.innoworld.net)

O'ZBEKISTON-2026



ONLAYN TA'LIMDA CHET TILI O'RGANISHNING SAMARADORLIGI

Nabijonova Xabiraxon

Andijon Davlat chet tillari instituti Ingliz filologiyasi, o'qitish metodikasi va tarjimashunoslik fakulteti 206-guruh talabasi

Jo'rayeva Lola

Andijon Davlat chet tillari instituti

Ingliz filologiyasi, o'qitish metodikasi va tarjimashunoslik fakulteti

Ingliz tili o'qitishning integrallashgan kursi kafedrasi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada onlayn ta'lim tizimi orqali chet tillarini o'rganishning samaradorligi tahlil qilinadi. Unda zamonaviy raqamli platformalar, masofaviy dars usullari va interaktiv o'quv materiallarining o'quvchilarning til o'rganish jarayoniga ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, an'anaviy va onlayn ta'lim shakllari o'rtasidagi farqlar, onlayn o'qitishning afzalliklari hamda yuzaga keladigan muammolar yoritib beriladi. Tadqiqot natijalari onlayn ta'lim orqali chet tillarini o'rganish samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

**Kalit so'zlar:** onlayn ta'lim, chet tili, samaradorlik, raqamli platformalar, masofaviy o'qitish, interaktiv o'qitish, ta'lim texnologiyalari.

**Kirish:** Ma'lumki chet tilini o'rganish umuman olganda o'z mahalliy tilidan boshqa tilda so'zlasha bilish hozirgi rivojlanib borayotgan 21-asrning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Dastlabki yillarda chet tilini o'qitish uchun faqatgina an'anaviy o'qitish tizimidan foydalanilgan bo'lsa, hozirga kelib buning o'rnini raqamli texnologiyalar ya'ni onlayn o'qitish tizimi egallamoqda. Bunga turtki bo'lgan asosiy omil sifatida COVID-19 pandemiyasini ta'kidlash mumkin. Chunki virus har bir sohaga jumladan ta'limga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Ana shu davrdan buyon onlayn ta'lim va bu formatda chet tili o'rganish odamlar orasida ommalashib odatiy holga keldi. Tan olish kerakki, onlayn ta'lim O'zbekiston Ta'lim tizimi uchun yangilik edi. Hech qanday tayyorgarchiliksiz bu tizimga kirib kelindi. Olimlar an'anaviy ta'limni rivojlantirish uchun turli metodikalar izlab chiqishganidek, onlayn ta'lim tizimi uchun ham nazariya va metodlarni o'rgana boshladilar. Onlayn ta'limni samaradorligini tahlil qilishdan oldin, bu uchun olim-professorlarimiz tomonidan berilgan fikr va nazariyalarni keltirib o'taman.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi **N.V. Raxmatova** o'z tadqiqotlarida chet tili o'qitish jarayonida an'anaviy metodlardan voz kechib, texnologiyalar asosida o'quvchini faol ishtirokchi sifatida jalb etish zarurligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, onlayn platformalar yordamida tashkil etilgan darslar talabalarning tilni tezroq o'zlashtirishiga, mustaqil fikrlash va muloqot kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi [Raxmatova, 2023].

Farg'ona davlat universiteti Chet tillari fakulteti tadqiqotchisi **G.S. Solijona** esa o'z maqolasida raqamli texnologiyalar va onlayn platformalarning chet tili o'qitishdagi rolini tahlil qiladi. Muallifning fikricha, masofadan ta'lim shaklida

interaktiv materiallar va multimedia resurslaridan foydalanish o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va tilni o'zlashtirish jarayonini samarali qiladi [Solijona, 2024].

Onlayn ta'limning ham o'z navbatida turli hil tariflari mavjud. Birinchi virtual maktablar 1990-yillarning o'rtalarida AQSh va Kanadada paydo bo'lgan. Masalan, Ontariodagi xususiy virtual maktab 1996-yildayoq ikkita onlayn dars taklif qildi, biri biologiya va biri Kanada adabiyoti. Floridadagi yirik virtual maktabda 30 000 ga yaqin talaba tahsil oladi .

Hozirgi vaqtda virtual maktablar butun dunyoda mavjud, biroq AQShda ular ayniqsa juda keng tarqalgan. Ushbu ta'lim muassasalari o'rta ta'lim tizimiga birlashtirilgan: o'quvchilar „oddiy“ maktabning kompyuter laboratoriyalarida o'tirgan holda fanlar bo'yicha topshiriqlarni bajarishlari mumkin. Ba'zida ta'lim yarim kunlik shaklda amalga oshiriladi, ba'zan esa kunduzgi va masofaviy ta'lim elementlarini birlashtiradi.

Til o'rganishda nafaqat onlayn ta'lim balki ,dasturlashtirilgan ,takomillashib borayotgan onlayn kurs,platformalarni ahamiyati kata.Bu platforma va kurslarning quyida afzalliklari ro'yhatini ko'rish mumkin:

Onlayn kurslar orqali chet tilini uyda,ko'chada,o'qishdan yoki ishdan qaytayotgan vaqtda bemaol o'rganib ketish mumkin.Hech qanday o'quv markazlarga vaqt va pul sarflab borishning hojati yo'q.Barcha ma'lumot va topshiriqlar birgina platformada joylashgan.

Izlanishlarga ko'ra, onlayn-ta'lim ko'pgina ko'rsatkichlarga ko'ra an'anaviy ta'limdan sifat borasida qolishmaydi. Amerika universitetlari o'qituvchilarining 77 foizi onlayn-ta'limni sifat jihatdan an'anaviy ta'lim bilan teng, ba'zida esa undan ustun deb hisoblashadi. Kursning samaradorligi asosan tinglovchiga bog'liq: masofaviy ta'lim ko'proq intizom va shaxsiy nazorat talab qiladi.Turli qulay vositalar: prezentatsiyalar, testlar, videolar, chat, ekran namoyishi va darsni qayta-qayta ko'ra olish imkoniyati ta'limning yuqori samaradorligini ta'minlaydi.

Sun'iy intellekt (SI) va mashina o'qitish texnologiyalari chet tili o'qitish jarayonini avtomatlashtirishda katta rol o'ynaydi. AI algoritmlari til o'rganishdagi xatolarni tahlil qilish, talaffuzni to'g'rilash va o'quvchilarni individual ravishda o'qitishda yordam beradi. Shuningdek, sun'iy intellekt asosida yaratilgan chat-botlar va til o'rganish platformalari o'quvchilarga interaktiv va shaxsiylashtirilgan o'quv jarayonini taqdim etadi.

Zamonaviy texnologiyalarni qo'llashda pedagogik yondashuvlar katta ahamiyatga ega. O'qituvchilar texnologiyalardan foydalanishda an'anaviy metodlardan farqli o'laroq, interaktiv va individual yondashuvni qo'llashlari lozim. Masalan, flipped classroom (aylanma sinf) metodikasi, problem based learning (muammo asosida o'qitish) kabi metodlar texnologiyalar bilan birlashtirib, samarali o'qitish jarayonini yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**



1. Sayfurov, D.M. (2023). *Onlayn ta'lim va masofaviy o'qitish: kompyuterli tarmoq texnologiyalari*. Tashkent: O'zbekiston Ta'lim Nashriyoti.
2. Mannanova, N. (2022). *Onlayn ta'limni masofaviy ta'limning bir turi sifatida tahlil qilish* [Falsafa doktori dissertatsiyasi]. Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
3. Raxmatova, N.V. (2023). *Chet tili o'qitishda texnologiyalar integratsiyasi va onlayn shakllar* [Maqola]. O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti Ilmiy Jurnal, 15(2), 45–52.
4. Solijona, G.S. (2024). *Chet tillarini o'qitishda raqamli texnologiyalarining roli*. Farg'ona davlat universiteti, Pedagogika Jurnal, 9(1), 34–41.
5. Avazmatova, M. (2023). *Chet tillarini onlayn tarzda samarali o'qitishning nazariy asoslari*. O'zbekiston Milliy Universiteti Ilmiy Jurnal, 7(3), 12–20.
6. Parbaboyev, D. (2022). *Masofaviy ta'limning kelib chiqish tarixi*. Jizzax davlat pedagogika universiteti Ilmiy Jurnal, 5(4), 8–15.

